

AYIRBOSHLASH SHARTNOMASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Hamrayev Ma'ruf Mamasharif O'g'li

Termiz Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada ayirboshlash shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy belgilari, ayirboshlash shartnomasining oldi-sotdi shartnomasi bilan o'xshashligi, xorijiy davlatlar fuqarolik qonunchiligi, ayirboshlash shartnomasi bo'yicha kiritilayotgan o'zgartirishlar haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: ayirboshlash shartnomasi, sotuvchi, sotib oluvchi, tovar bahosi, miqdori, assortimenti, ashyolar, barter.

Аннотация: в данной статье изложены мнения о понятии договора мены и его юридических признаках, сходстве договора мены с договором купли-продажи, гражданском законодательстве зарубежных стран, изменениях, вносимых в договор мены.

Ключевые слова: договор мены, продавец, покупатель, цена товара, количество, ассортимент, предметы, бартер.

Abstract: this article contains opinions about the concept of exchange contract and its legal signs, similarity of exchange contract with sales contract, civil legislation of foreign countries, changes being made to exchange contract.

Key words: exchange contract, seller, buyer, commodity price, quantity, assortment, items, barter,

Ayirboshlash shartnomasi hozirgi kunda pul va tovar munosabatlariga asoslangan bo'lib, bozor munosabatlarida alohida ahamiyatga egadir. Shu boisdan fuqarolik qonunchiligimizda ayirboshlash shartnomasiga quyidagicha ta'rif berilgan – har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo'li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi. Demak ushbu qoidadan kelib chiqsak, ayirboshlash shartnomasida shartnoma predmeti bo'lgan biron-bir tovar ikkinchi tarafga, mazkur tovar qiymatini umumiy ekvivalent bo'lgan yoki deyarli teng keladigan boshqa bir tovarga ayirboshlanadi. Ayirboshlash shartnomasi – mulk qilib olish va topshirish majburiyati ifodalangan shartnoma hisoblanadi. Bunga ko'ra, har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirib beradi. Ayirboshlash shartnomasiga nisbatan tegishincha oldi-sotdi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi. Bunda har qaysi taraf almashtirish yo'li bilan topshirish majburiyatini olgan tovar sotuvchi va qabul qilish majburiyatini olgan tovarni sotib oluvchi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 497-modda). Mazkur huquqiy munosabat odatdagi shartnomalar, ya'ni oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish kabi shartnomalarga o'xshash bo'lib, taraflarga bu orqali kelishi mumkin bo'lgan muayyan pul summalariga talab – ehtiyojlardan kelib chiqmay, balki bevosita mazkur shartnomaning predmeti bo'lgan tovarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqadi. Boshqa shartnomalarda bo'lgani singari ayirboshlashda ham uning predmeti hisoblangan tovarning bahosi muayyan ahamiyatga ega hisoblanadi. Ammo ko'pincha amaliyotda ayirboshlash predmetining qiymati bir xil bo'lmaydi. Bunday hollarda bahosi ayirboshlashga taqdim qilinayotgan tovar bahosidan past bo'lgan tovarni topshirayotgan taraf baholardagi farqni to'lashi lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 242-moddasiga asosan, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, qarzdor hisoblangan taraf bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab 7 kunlik muddat ichida bajarishi kerak. Mazkur ayirboshlash shartnomasi quyidagi belgilari bilan ajralib turadi;

Birinchidan – konsesual shartnoma, ya'ni unga ko'ra taraflarning huquq va burchlari shartnoma qonun talablari doirasida rasmiylashtirilgan paytda vujudga keladi;

Ikkinchidan – haq evaziga tuziladigan shartnomadir, ya'ni shartnoma bo'yicha taraflar zimmasiga muqobil ijro majburiyatlarini bajarish yuklangan bo'lib, ya'ni tovarlarni o'zaro ayirboshlash, shuningdek tovarlar qiymati teng bo'lmaganda - qiymat o'rtasidagi farqni pul shaklida to'lash;

Uchinchidan – ikki taraflama shartnoma hisoblanadi, ya'ni ikki tarafda ham huquq, ham majburiyatga ega bo'ladi.

Shartnomaning muhim jihatlaridan ya'ni biri ayirboshlanadigan tovarlarga bo'lgan mulk huquqining ikkala tarafga tovarlarni topshirish majburiyatini bajargandan so'ng bir vaqtda o'ta boshlanishidir. Ayirboshlash shartnomasi predmeti muayyan moddiy qiymatga ega bo'lgan hamda iqtisodiy munosabatlarning predmeti bo'la oladigan ashyolardir. Bozor munosabatlari sharoitida ba'zi hollarda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar bilan iste'molchilar o'rtasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi asoslardan biri sifatida ayirboshlash (barter) shartnomasi qo'llaniladi. Barter inglizcha "barter" so'zidan olingan bo'lib, bevosita tovar almashuvi ma'nosini bildiradi. Barter bitimi tushunchasi ayirboshlash shartnomasi tufayli vujudga keluvchi majburiyatlar mazmunini to'la qamrab ololadi. Yuridik shaxslarning bu biradagi faoliyatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 9-iyuldagi PF-616-sonli "Barter asosida amalga oshiriladigan eksport-import operatsiyalari bo'yicha tartib buzilishlari va suiiste'molliklarga chek qo'yish to'g'risida"gi Farmoni bilan mustahkamlangan. Unga ko'ra, kelishib olingan miqdordagi bir tovarni boshqa bir tovarga o'zaro hisob-kitoblarni valyutada amalga oshirmasdan almashtirishni nazarda tutuvchi shartnoma barter shartnomasi hisoblanadi. Shartnomada o'zaro yetkazib beriladigan tovarlarning miqdori va qiymati yoxud tomonlar ekvivalentlik asosida yetkazib berish majburiyatini olgan tovarlarning summasi oldindan kelishib qo'yiladi.

Ayirboshlash shartnomasida taraflar sifatida jismoniy va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Shartnomada qatnashuvchi taraflar bir paytning o'zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi sifatida qatnashadi. Shuning uchun ham shartnomada qatnashuvchi taraflar deyarli bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar. Ayirboshlash shartnomasi bo'yicha taraflar quyidagi majburiyatlarga egadirlar;

1. ayirboshlanayotgan tovarni o'z vaqtida, kelishilgan tartibda qabul qilib olish;
2. qabul qilingan tovar evaziga ayirboshlanishi lozim bo'lgan tovarni o'z vaqtida topshirish;
3. topshirilayotgan tovarlarning sifati, assortimenti, yaxshi bo'lishini ta'minlash.

Shartnoma majburiyatlarini muqobil ravishda bajargan taraflar ikkinchi tarafdan tovarning topshirilishini; shartnoma shartlari qo'pol ravishda buzilgan bo'lsa, ya'ni sifatsiz tovar ayirboshlangan, tovarni topshirish muddati uzrsiz uzoq muddatga kechiktirilgan hollarda bir taraf shartnomani bekor qilishga haqli. Agar ayirboshlash shartnomasi shartlari ikkala taraf tomonidan to'liq bajarilgan bo'lsa, har ikkalasida ham tovarlarga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi.

Ayirboshlash shartnomasi, odatda fuqarolar o'rtasida tuzilganda va shartnoma predmetining bahosi eng kam oylik ish haqining o'n baravarigacha bo'lgan hollarda o'g'zaki shaklda tuzilishi mumkin. Yuridik shaxslarning o'zaro va fuqarolar tomonidan tuzilgan bitimlar, fuqarolar o'rtasida belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq summadagi bitimlar yozma shaklda tuziladi. Ba'zi bir hollarda shartnomaning predmeti yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mol-mulklar bo'lgan, bunday bitimlar notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinadi. Ayirboshlash shartnomasining muddati taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Shartnoma bo'yicha javobgarlik oldi-sotdi shartnomasidagi javobgarlikka o'xshashdir. Xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 393-moddasiga asosan, sotuvchi tovarni sotib

oluvchiga uchinchi shaxslarning har qanday huquqlardan ozod holda topshirishi shartligi belgilab qo'yilgan. Qonunda agar topshirilgan tovarni sotib oluvchidan uchinchi shaxslar tomonidan olib qo'yiladigan bo'lsa, sotuvchi tarafning bevosita javobgarligi belgilab qo'yilgan. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 501-moddasiga ko'ra, ayirboshlash shartnomasi bo'yicha olgan tovarini uchinchi shaxslar olib qo'yganda, 395-moddaga muvofiq nazarda tutilgan asoslar bo'lsa, boshqa tarafdin ayirboshlash asosida olingan tovarni qaytarishni yoki zararni qoplashni talab qilishga haqlidir. Shartnoma bo'yicha ayirboshlanayotgan tovarlarning miqdori, assortimenti, uning sifati, tovarning butligi muhim hisoblanadi va ularni shartnomada kelishilganidek bajarmaslik tegishlicha taraflarning javobgarligini keltirib chiqaradi. Xususan, tovarni topshiruvchi shartnoma shartlarini buzib, tovarni qabul qilib oluvchiga shartnomada belgilangan miqdordan kam tovar topshirilgan bo'lsa, tovarni qabul qilib oluvchi agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tugallanmagan bo'lsa, tovarning yetishmayotgan miqdorini topshirish talab qilishga yo topshirilgan tovardan va uning haqini to'lashdan bosh tortishga haqli. Ayirboshlash shartnomasi bo'yicha javobgarlik faqat bir tarafda emas balki ikkala tarafda ham vujudga keladi.

Ayirboshlash shartnomasi yuqarida aytib o'tganimizdek, yuridik mohiyatiga ko'ra oldi-sotdi shartnomasiga juda yaqin. Shu sababli, oldi-sotdi to'g'risidagi umumiy qoidalar ayirboshlash shartnomasiga nisbatan tadbiiq etiladi. Xorijiy mamlakatlarning fuqarolik kodekslarida, xususan, GFRning Fuqarolik kodeksi 480-moddasida, Niderlandiya Fuqarolik kodeksi 7:50-moddasida, Ispaniya Fuqarolik kodeksi 1541-moddalarida, Fransiya Fuqarolik kodeksi 1707-moddasida ayirboshlash shartnomasi bo'yicha alohida belgilangan normalardan tashqari boshqa barcha yuzaga kelgan holatlar oldi-sotdi shartnomasidagi umumiy normalar asosida hal etilishi belgilangan. Amaldagi Kodeksning yuqorida nazarda tutilgan huquqiy normalari yuqoridagi davlatlarning, shuningdek, Koreya, Yaponiya kabi davlatlarning Fuqarolik kodekslarining tegishli boblarida mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 501-moddasi, ya'ni ayirboshlash shartnomasi bo'yicha olingan tovarlarni olib qo'rganlik uchun javobgarlik masalasi mazkur davlatlardan faqat Fransiya Fuqarolik kodeksi VII bobida, Ispaniya Fuqarolik kodeksi 1540-moddasida belgilangan bo'lib, amaldagi Fuqarolik kodeksidan butunlay farq qiluvchi normalar mavjud. Mazkur davlatlardagi boy tajribadan foydalangan holda, shuningdek, taraflarning shartnoma tuzish erkinligini kengaytirish maqsadida mazkur moddalar yangi tahrirdagi Kodeks loyihasidan chiqarib tashlash taklif etilgan.

Yangi Fuqarolik kodeksda ayirboshlash va hadya bo'yicha quyidagicha o'zgarishlar kutilmoqda;

- Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti tomonidan Prezidentimizning 2019 yil 5 apreldagi farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi asosida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi loyihasi ishlab chiqilmoqda. Loyihaga ayirboshlash va hadya qilish bilan bog'liq yangi normalar kiritilmoqda.

Ayirboshlash bo'yicha kiritilayotgan o'zgartirishlar quyidagicha;

- amaldagi Fuqarolik kodeksining 497-moddasida avtomototransport vositalari bo'yicha tuziladigan ayirboshlash shartnomasining alohida tartibi belgilangan. Ya'ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomototransport vositalarini ayirboshlash shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Avtotransport vositasi oddiy harakatlanuvchi ashyo, ya'ni ko'char mol-mulk hisoblanadi hamda unga nisbatan umumiy qoidalar (umumiy normalar) qo'llanilishi kerak. Ayniqsa, avtomototransport vositasini ayirboshlash shartnomasining notarial tasdiqlanishi nafaqat qo'shimcha harajatlarni keltirib chiqaradi, balki mazkur shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazishni murakkablashtiradi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan Avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomning 8 bandiga ko'ra, ro'yxatdan o'tkazish harakatlarini amalga oshirishda, shuningdek, notarius tomonidan bitimlarning tasdiqlanishidan oldin ko'rikdan o'tkazilishida avtomototransport vositasini ro'yxatdan o'tkazish hujjatlaridagi ma'lumotlar YHXDX organlari tomonidan olib qochilgan va o'g'irlangan avtomototransport vositalari bo'yicha ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslanadi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq avtomototransport vositasi boshqa shaxsga o'tkazilishiga taqiq

yoki xatlovning mavjudligi yuzasidan tekshiriladi. Ko‘rinib turibdiki, notarius davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vaqtida amalga oshiriladigan bir xil vazifani bajarmoqda. Shartnomani notarial tasdiqlash avtomototransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazishdagi ma‘muriy cheklov bo‘lib, ortiqcha ovoragarchilikka sabab bo‘ladi. Xorijiy mamlakatlarda (Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Yaponiya, Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Gruzija va boshqalar) avtotransport vositalari bilan shartnomalarni notarial tasdiqlash talab etilmaydi. Shundan kelib chiqib, avtotransport vositalarini ayirboshlash shartnomalarini tartibga solish qoidalarini mazkur moddadan chiqarib tashlash taklif etilmoqda.

Qisqacha xulosa:

Ayirboshlash shartnomasi bozor iqtisodiyoti munosabatlarida alohida o‘ringa egadir. Bu shartnoma iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, tijorat oshirish, investetsiyalar va boshqa muammolarni yechishning bir qator usullaridan biri sifatida ishlatiladi. Shuningdek ayirboshlash shartnomasi bajarishning shartlarini aniqlaydi. Bu shartlar shartnoma muddati, to‘lovlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shu boisdan ham u amaldagi fuqarolik qonun hujjatlarida o‘zining huquqiy asoslarini topgan. Yil davomida ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha bir qator da‘vo sud ishlari ko‘rib chiqilgan. Xususan, 2019-yil davomida ayirboshlash bo‘yicha barcha Iqtisodiy sudlarning birinchi instansiyasida jami 4 ta ish ko‘rilgan, shulardan 3 tasida da‘vo qanoatlantirilgan. Ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha eksport va import hajmlari yil davomida oshib bormoqda va bu mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti uchun juda muhimdir. 2022-yilda tovar ayirboshlash hajmi - 1159,2 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, ular ichida eksport - 88,9 mln dollarni, import - 1070,3 mln dollarni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-fevral oylarida jami savdo aylanmasi- 573 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan eksport - 11 million dollar, import - 562 million dollar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 2-qism
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 9-iyuldagi PF-616-sonli “Barter asosida amalga oshiriladigan eksport-import operatsiyalari bo‘yicha tartib buzilishlari va suiiste’molliklarga chek qo‘yish to‘g‘risida”gi Farmoni

Ilova manbalari:

3. <https://lex.uz/docs/-180552>
4. <https://lex.uz/docs/-292455>